

**TALABALARNING KOMMINIKATIV KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING PEDAGOGIK
IMKONIYATLARI VA AFZALLIKLARI**

Nazarmatova Yorqinoy Maxmudaliyevna

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 17.12.2025

Revised: 18.12.2025

Accepted: 19.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Raqamli
texnologiyalar,
texnologiyalar,
kommunikativ
kompetensiya, onlayn
platformalar, mobil
ilovalar, muloqot,
virtual, oliy ta'lim.*

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi. Ta'lim texnologiyalari xususan, onlayn ta'lim platformalari, mobil ilovalar, interaktiv dasturlar, shuningdek, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarining til o'qitishdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot davomida bu texnologiyalarning til o'rganish samaradorligini oshirish, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni kuchaytirish, talabalar mustaqil va tanqidiy fikrlashini shakllantirish, hamda guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kirish

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim berish usulini, ayniqsa o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini kuchaytirish orqali o'zgartirdi. Bu bugungi global raqamli iqtisodiyotda muhim imkoniyatdir. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar xususan, ta'lim texnologiyalari o'zining keng ko'lamli imkoniyatlari bilan ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida ularning tatbiqi ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda talabalar kommunikativ

kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlarda raqamli vositalardan keng foydalanilmoqda. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari hamda ularning talabalar kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rnini o'rganiladi.

Onlayn platformalar va kommunikatsiya vositalarining pedagogik imkoniyatlari

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi, chunki samarali muloqot akademik muvaffaqiyat va kasbiy faoliyat uchun zarurdir. An'anaviy dars mashg'ulotlarida vaqt cheklanganligi, guruhlarining katta bo'lishi hamda psixologik to'siqlar sababli talabalar faol ishtirok etish imkoniyati mumkin. Zoom va boshqa videokonferensiya platformalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi ushbu muammolarni bartaraf etish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Onlayn platformalar va kommunikatsiya vositalarining pedagogik imkoniyatlari talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'quv jarayonini interaktiv va samarali tashkil qilish uchun bir qator imkoniyatlar yaratadi. Onlayn platformalar va boshqa kommunikatsiya vositalari talabalar o'rtasida interaktiv muloqot o'rnatish orqali muhokama qilish, fikr almashish, o'z qarashlarini ochiq va aniq ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi va talabalar orasida doimiy aloqa o'rnatiladi. Bunday hamkorlik talabalarni o'zaro samarali muloqot qilishga, fikrlarini aniq, asosli va qisqa tarzda ifodalashga undaydi. Shuningdek, talabalar o'rtasida ko'proq ijtimoiy va madaniy integratsiya jarayonlarini amalga oshiradi.

Bundan tashqari, auditoriya oldida erkin muloqotga kirisha olmaydigan talabalar uchun onlayn platformalar o'qituvchi bilan muloqotga kirishish uchun qulay muhit hisoblanadi. Onlayn vositalar yordamida talabalar tezkor javob olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Moodle, Edmodo, Google Classroom, Canvas kabi platformalarda talabalar o'z ishlarini yuborish va o'qituvchidan vazifani qanday bajarish bo'lisha ko'rsatmalar olishlari, muhokama oynasida loyihalar va topshiriqlar yuzasidan muloqot qilishlari, o'zaro fikr almashishlari, kelishuvga erishishlari va o'zaro baholash ko'nikmalarini egallaydilar. Bu usul talabalar o'rtasida tezkor va samarali kommunikatsiyani ta'minlaydi, va bu jarayon ularga yanada samarali o'rganish imkoniyatlarini yaratadi. Bu jarayon kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Onlayn platformalar talabalarni nafaqat o'z guruhidagi tengdoshlari bilan, balki turli mamlakatlar va madaniy muhit vakillari bo'lgan talabalar bilan ham samarali muloqotga jalb etish imkonini beradi. Skype, Zoom, Microsoft Teams kabi video-konferensiya texnologiyalari orqali tashkil etilgan

=====

xalqaro onlayn uchrashuvlar va qo'shma mashg'ulotlar talabalarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday muloqot jarayonida talabalar turli madaniy qadriyatlar, nutq uslublari, muloqot etiketi hamda ijtimoiy me'yorlar bilan tanishib, o'z fikrlarini madaniyatlararo kontekstda aniq va mos ravishda ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradilar. Shuningdek, real vaqt rejimidagi xalqaro muloqot tolerantlik, empatiya va ochiq fikrlashni rivojlantirib, talabalarni global fuqarolik va professional faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Onlayn platformalar yordamida talabalar mustaqil ravishda o'qish va o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Talabalarga interaktiv o'quv materiallari, videolar, audio materiallar va boshqa resurslar taqdim etiladi. Masalan, Kahoot yoki Quizlet kabi vositalar yordamida talabalar o'qilgan mavzu bo'yicha sinovlar va viktorinalarda ishtirok etib, o'z bilimlarini baholashlari mumkin. Bu materiallar orqali talabalar muloqotda bo'lish, ma'lumotlarni to'g'ri qabul qilish va ularga tahliliy yondoshuvni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Onlayn platformalar yordamida talabalar matn, video, audio yoki rasmlar orqali turli shakllarda fikrlarni ifodalashadi. Masalan, YouTube, Vimeo, yoki TikTok kabi platformalar yordamida talabalar videolar tayyorlab, o'z fikrlarini vizual va eshittirish shaklida ifodalashlari mumkin. Bularning barchasi talabalar muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Onlayn platformalar yordamida talabalar o'zlari uchun mos keladigan o'quv materiallarini tanlab olishlari mumkin. Bu individual o'rganish orqali talabalar o'z o'rganish uslublari mos ravishda o'quv jarayonini rivojlantiradi. Onlayn platformalar va kommunikatsiya vositalari talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vositalar hisoblanadi.

Mobil ilovalarning pedagogik afzalliklari

Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda HelloTalk, SpeakPal, Hallo va Telegram kabi mobil ilovalardan foydalanish ham muhim didaktik ahamiyatga ega. Ushbu ilovalar talabalar uchun autentik til muhitini yaratib, real muloqot asosida og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu ilovalarning yana bir e'tiborli jihati shuki, virtual olamdagi boshqa millat vakili bilan jonli muloqotga kirisha olishning bir necha qulay tomonlari mavjud bo'lib suhbatdoshining til bilish darajasiga qarab tanlashi, rad etishi mumkin. Xususan, HelloTalk ilovasi orqali talabalar ona tili sohiblari bilan bevosita muloqotga kirishib, til birliklaridan kommunikativ vaziyatga mos holda foydalanishni o'rganadilar. SpeakPal ilovasi esa sun'iy intellekt asosidagi interaktiv

mashqlar yordamida talaffuz, intonatsiya va nutq ravonligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Hallo ilovasi orqali esa guruhli audio va video suhbatlar tashkil etilib, talabalar oʻzaro fikr almashish, bahs yuritish va madaniyatlararo muloqot koʻnikmalarini rivojlantiradilar. Mazkur mobil ilovalarning oʻquv jarayoniga integratsiya qilinishi talabalarning mustaqil oʻrganish motivatsiyasini oshirib, kommunikativ kompetensiyaning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik tarkibiy qismlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa:

Zamonaviy raqamli texnologiyalar oliy taʼlim tizimida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar taʼlim jarayonini interaktiv va dinamik shaklda tashkil etishga imkon yaratadi. Ayniqsa, onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, virtual va mobil ilovalari orqali talabalar axborotni tez va samarali tarzda qidirib topish, tahlil qilish, fikr bildirish hamda bilim almashish imkoniyatiga ega boʻladilar. Raqamli vositalar yordamida talabalar oʻz fikrlarini erkin ifodalash, muloqot madaniyatini rivojlantirish, jamoa bilan ishlash va taqdimot koʻnikmalarini shakllantirishga keng yoʻl ochiladi. Shu bilan birga, mazkur ilgʻor texnologiyalardan samarali foydalanish oʻqituvchining metodik tayyorgarligi, mashgʻulotlarni puxta rejalashtirilishi hamda raqamli savodxonlik darajasiga bevosita bogʻliqdir. Toʻgʻri pedagogik yondashuv asosida qoʻllanilgan bu turdagi texnologiyalar talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda barqaror va yuqori natijalarga erishish imkonini beradi hamda ularni global taʼlim va kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli tayyorlashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gafurova N.M. Raqamli taʼlim vositalaridan samarali foydalanish yoʻllari // Pedagogik taʼlim va fanlar. —2023. —No1. —B. 45–50.
2. Rustamova D.S. Zamonaviy taʼlimda kommunikativ kompetensiyaning oʻrni // Oʻzbek pedagogik axborotnomasi. —2022. —No2. —B. 78–84.
3. UNESCO. ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications. — 2019. —URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000371008> (kun: 15.05.2025).
4. Kozma R. Technology and Classroom Practices: An International Study // Journal of Research on Technology in Education. —2003. —Vol. 36, No. 1. —P. 1–14

5. Kessler, M., Loewen, S., & Gönülal, T. (2023). Mobile-assisted language learning with Babbel and Duolingo: comparing L2 learning gains and user experience. Computer Assisted Language Learning, 1-25.

